

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining
topshiriqlarini 2025-yil I yarimyilligida amalga oshirish bo‘yicha yo‘l
qo‘yilgan tizimli kamchiliklar hamda
2025-yilning II yarimyilligida ijro intizomini
yana-da mustahkamlash bo‘yicha takliflar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri maslahatchisining 2025-yil 21-iyuldaggi 07-15-18-sonli topshirig‘iga asosan, joriy yilning III choragida vazirlik va idoralarda ijro intizomini yana-da mustahkamlash, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va mutaxasislarning malakasini oshirish maqsadida iqtisodiy o‘qishlar tashkil etish belgilangan.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini “ijro.gov.uz” elektron tizimida samarali tashkil etish, 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son farmoni hamda 2021-yil 31 maydaggi PQ-5132-son qarorida belgilangan talablarga qat’iy amal qilgan holda amalga oshiriladi.

Jamiyatda 2025-yilning I yarimyilligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini bajarish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Topshiriqlarning ijro holati “O‘zbekiston MET” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlari huzuridagi har kungi yig‘ilishlarda muhokama qilib borilmoqda.

“ijro.gov.uz” elektron tizimida 2025-yilning yanvar-iyun holatiga “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ mas’ul bo‘lgan jami O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **72 ta**, Vazirlar Mahkamasining **18 ta** topshirig‘i ijrosi to‘liq ta’milanib tizimda nazoratdan yechildi.

2025-yil iyul oyida jami **8 ta** asosiy ijrochi sifatida belgilangan topshiriq ijrosi to‘liq ta’milanib tizimda nazoratdan yechildi.

Avgust oyida jami 14 ta, shundan asosiy ijrochi sifatida **9 ta** topshiriq mavjud, **1 ta** topshiriq bajarildi, **8 ta** topshiriqning ijrosini ta’minalash choralari ko‘rilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bo‘yicha avgust oyida **6 ta** topshiriq mavjud bo‘lib ijrosini ta’minalash choralari ko‘rilmoqda.

Avgust oyiga belgilangan nazoratdagi topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida, 23-iyul kuni topshiriqlar bo‘yicha kunkuniy kalender grafik hamda boshqaruv raisi o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘limlar kesimida yo‘l xaritalari tasdiqlanib “ijro.gov.uz” tizimi orqali ijrochilarga yetkazildi.

Joriy-yilning II yarimyilligida muddati belgilangan topshiriqlarni har tomonlama tahlil qilish, bunda ijrosini ta’minalashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning oldini olish, muammoli masalalarni aniqlash, topshiriqlarni samarali va to‘liq hajmda bajarilishiga alohida e’tibor qaratish, oldindan chora-tadbirlar belgilab olinishi lozim.

Topshiriqlarni belgilangan muddatlarida bajarish imkonini bo‘lmagan taqdirda (bajarish muddatidan kamida ikki oy oldin) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan talablar asosida Adliya vazirligiga asoslovchi takliflar kiritilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarida belgilangan ijro muddatlari faqatgina Adliya vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko‘rib chiqilib, Hisob palatasi xulosasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi ruxsati bilan uzaytiriladi.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar “ijro.gov.uz” tizimi orqali to‘liq, to‘g‘ri va o‘z vaqtida taqdim etib borish, tasdiqlangan kalendar grafiklar asosida belgilangan muddatidan kamida 5 kun oldin ta’milanishi, nazoratini kunlik samarali tashkil etish, har bir topshiriqqa mas’uliyat bilan yondashish lozim.

Ijro muddati belgilanmagan yoki ijro muddati bir-yil va undan ortiq etib belgilangan topshiriqlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar har olti oyda mas’ul ijrochilar tomonidan “ijro.gov.uz” tizimiga kiritib boriladi.

Kamchilik va muammolar:

- Ijroga barvaqt kirishmaslik;
- Tasdiqlangan nazorat rejali, yo‘l xaritalaridagi muddatlar bilan tizimli ravishda ishlarni tashkil qilmaslik;
- Faqatgina ijro muddati yaqin bo‘lgan topshiriqlar bilan ishslash;
- Muddatini uzaytirish va alohida tartibda nazoratdan olish bo‘yicha takliflarni sifatsiz hamda kechiktirib taqdim etish.

2025-yilning II yarimyilligida “ijro.gov.uz” tizimida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha takliflar:

- Topshiriqlarni bajarishda yuzaga kelayotgan har qanday muammoli masalalar rahbariyat bilan muhokama qilinib, bevosita xamkorlik va jonli muloqot asosida hal etish;
- Bajarilmaslik havfi mavjud bo‘lgan topshiriqlarga alohida e’tibor qaratish va ular ijrosini barvaqt tashkil etish choralarini ko‘rish;
- Topshiriq kelib tushgan zaxoti topshiriqqa mas’ul ijrochini belgilash va o‘z muddatida bajarish ko‘rsatmasini berish.

“O‘zbekiston MET” AJda boshqarma, bo‘lim va xizmat boshliqlariga, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarini to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta’milamagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llanilishi belgilangan.

Dilfuza Saidova, Ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i